

"AYRILIQ OSTONASI" ROMANIDA TARIXIYLIK VA BAITY TO'QIMA

Abdullayeva Farangiz Azim qizi
Buxoro davlat universiteti magistranti

Mana necha asrlar o'tibdiki, turkiy urug'lar va qabilalarning shakllanishi haqida bir qancha asarlar yaratilib kelinmoqda. Bu , albatta, kitobxonning tarixiy voqelikka nisbatan ma'naviy ehtiyojning ortib borayotganligidan dalolat beradi. Xuddi shu ehtiyojlar samarasini o'laroq, bugungi kun Buxoro adabiy harakatchiligining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Jo'ra Fozil ijodida ham tarixiy mavzudagi asarlar salmoqli o'rinni egallaydi: "Ayriliq ostonasi" (O'g'uzxon obrazi)romani, "Buxoroyi sharif elchilar" (Ernazar Maqsud obrazi) qissasi, "Oshiq Buxoriy qissalari" turkumidan o'rinni olgan "Buxoro malikasi" (Buxoro malikasi Qabochning arablar istilosiga qarshi mardonavor kurashi), "Ibtido va intiho" (Somoniylar davri), "Qizil quyun" (bolsheviklarning Buxoroni istilo etishi) qissasi shular jumlasidandir.

Jo'ra Fozilning "Ayriliq ostonasi" tarixiy romanini o'qir ekanmiz, asar ko'plab manbalardan oziqlanganiga guvoh bo'lamiz. Jo'ra Fozilga qadar O'g'uzxon shaxsiyati va badiiyati xususida yaratilgan asarlarda mushtaraklik va qarama-qarshilikni ko'rishimiz mumkin. Rashididdin Fazlullohning "Jome at-tavorix" kitobida turkiy qavmlarning yuzaga kelishi hamda 24 turk qavmiga nom berilishi bilan bog'liq bir necha afsona va rivoyatlar keltiriladi, bu afsona va rivoyatlarda O'g'uzxon shaxsiyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Abulg'ozzi Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarlarida O'g'uzxon obrazi yaratilishi deyarli mushtaraklik hosil qiladi. Ushbu asarlarda O'g'uzxon Nuh payg'ambarning avlodi ekanligi va tug'ilganidan onasini emmagani aytildi: "Ey ona, to sen musulmon bo'lmas ekansan va xudoysi taolo yagonaligiga imon keltirmas ekansan, haqparast bo'lmas ekansan, men sening sutingni emmasman"¹.

Ijodkorning "Ayriliq ostonasi" romanida O'g'uzxon va uning o'g'llari, yurishlari bilan bog'liq voqealarni tasvirlashda "O'g'uznama" dostoni, "O'g'uzxonidan qolgan mulk", Bichurinning "Qadimgi davrda O'rta Osiyoda yashagan xalqlar haqida ma'lumotlar to'plami" nomli uch qismidan iborat asariga tayanganligini ko'ramiz. Chunki ushbu asarlarda O'g'uzxon Ko'ktangriga sig'inuvchi shomon sifatida gavdalanadi. Shunga ko'ra Jo'ra Fozil asarida ham O'g'uzxonning mumsulmon bo'lganligiga doir qarashni uchratmaymiz. Biroq yozuvchi bosh qahramonni kitobxonga ham ma'nani, ham jismonan kuchli shaxs sifatida tanitishga intiladi. Aynan shu maqsadi tufayli tarixiy manbalarda keltirilgan ayrim ma'lumotlarga zid keluvchi badiiy voqelikni yaratadi. Masalan, Bichurindan farqli ravishda Jo'ra Fozil Botur (O'g'uzxon)ni ukasi taxtga o'tirishidan cho'chib, ovda otasi Tuman, o'gay onasi, aka-ukalarini o'ldirib o'zini xon deb e'lon qilish yo'lidan bormaydi. "Bunday yo'l bilan taxtga chiqish ulug' xoqonga xos emas" deb hisoblaydi ijodkor va o'sha davr diplomatiyasi nuqtayi nazaridan Boturni otasi Tuman tomonidan qo'shni Ulug' Yovchilar xoni saroyiga garov tariqasida yuborilgani va o'g'lini muqarrar o'lim kutayotganini bilsa-da, Ulug' Yovchilar davlatiga hujum boshlash voqealarini kiritadi. Asarda ayni shu voqealar ota va o'g'il munosabatlarini keskinlashuvining sababi sifatida keltiriladi va bu asardagi ota va o'g'il orasidagi konfliktni

¹ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. Cho'lpox nashriyoti. Toshkent 1994. B 42.

jonli va asosli bo'lishini ta'minlaydi. Ijodkorning tarixiy voqelikning adib ko'zi bilan ko'rib, uning badiiy haqiqatga aylantirishdagi mahorati aynan shu voqealar bayonida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Asarga to'qima obraz sifatida kiritilgan Rajo obrazi o'quvchi ko'z o'ngida bir pari misoli gavdalanadi. Zero, asarda tasvirlangan davr, miloddan avvalgi II asrdagi e'tiqodiy qarashlarni nazarda tutgan holda yozuvchi Rajoni qahramonni yovuzlikdan himoya qilib yurguvchi bir kuch, har bir voqealarni oldindan ko'ra oluvchi karomat sohibi sifatida tasvirlaydi. "O'g'uznomá" dostonida esa bu vazifani turkiy qavmlarning timsoli va homiysi hisoblangan bo'ri obrazi bajaradi. Yozuvchining Rajo obrazini asarga kiritishdan maqsadi, qiyin vaziyatda qolgan Boturning dushman qo'lidan sog'-omon chiqib o'z yurtiga qaytib borishini hayotiy haqiqatga zid bo'lмаган holda ko'rsatib berishdan iborat. Zero, biror-bir madadsiz dushman saroyidan hech bir talofatsiz chiqib ketish mushkul. Ijodkor bu vazifani Rajo obraziga yuklaydi. Asarda Rajo obrazi Ulug' Yovchilar bog'bonining qizi sifatida ta'riflanadi. Qiz bog'da Boturni ko'rib unga ko'ngil qo'yadi. Rajo har kuni tongda sevgisiga yetolmagan shahzoda haqida qo'shiq kuylaydi va Botur qizning sehrli ovozidan unga pinhona oshiq bo'lib qoladi. Rajoning yo'llagan maktubidan so'ng oshiqlar tun qorong'usida diydorlashadilar:

-Shahzodam, hayron bo'l imagin, o'zi maktub bitib, meni uchrashuvga chorlagan qiz kim bo'ldiykin, deb. Men - Rajo Tangri irodasi ila seni yolg'izlik balosidan qutqarishga azm etgan bir odamman, xolos. ...

...-Nega aynan meni yolg'izlikdan xalos etmoqqa azm etmis san? -yana savol berdi Botur.

-Negaki, buni Kuntangri ko'nglimga solmish. Sen ulug' ishlarga qodir, ulug' ishlar qilguvchisan, shahzodam! - Rajoning shirali tovushida mehr, mehribonlik bor edi, bu shahzoda ko'nglidagi muzlarni eritganday bo'ldi.

Rajoning nutqi va harakatlarida insondan ko'ra parilarga xos xususiyatlar namoyon bo'lib boradi. Shuningdek, adib qizni insonga xos turli nuqsonlardan-da xoli, ideal bir qahramon sifatida yaratadi. Uning muhabbat ham Tangrining ixtiyori bilan, yordami ham uning amri bilan. Qiz, haqiqatdan ham, Boturni himoya qilish uchun Tangri tomonidan yuborilgan bir hilqat.

Ijodkor ushbu to'qima obrazdan g'oyat unumli foydalanadi, Rajo obrazini asarga kiritish orqali kompozitsion yaxlitlikka erishiladi. Xoqon Tumanning asiralaridan biriga aylangan Rajoning zindondaligini bilgan Botur otasidan uni ozod qilishni so'raydi, chunki Boturning qalbida ham Rajoga nisbatan muhabbat uyg'ongan edi. Ikkinci tomondan uning oldidagi qarzdorlik hissi bor edi dilida. Otasiga o'z kechimmalari anglatishiga qaramay, Xoqon Tuman Rajoni eng quyi yerto'laga joylashtiradi va o'g'liga uni qochib ketganini aytadi. Rajoning zindonda vafot etishi esa ota va o'g'il o'rtasidagi konfliktni yanada kuchaytiradi va alaloqibat jijargo'shalar o'rtasida qonli urushning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Urush taqdirini hal qilgan narsa esa, bu O'g'uzxonning ixtirosi edi. Tarixiy manbalardan O'g'uzxon ovozli o'q-yoy ixtiro qilganligi haqidagi ma'lumotni o'qigan ijodkor, o'zi ko'rmagan, o'zi ishonmagan narsani asariga olib kirishni istamaydi va uzoq vaqt o'q-yoy qanday qilib dushman yuragiga qo'rquv soladigan darajada ovoz chiqarishi mumkinligi ustida bosh qotiradi va kamonga naydek orasida teshigi bor moslama o'rnatilsa, undan nayza otilganda ovoz

chiqishini o‘z amaliyotida sinab ko‘radi, so‘ngra asarga olib kiradi. Bu ijodkorning asarda badiiy ixtironing hayot haqiqatiga zid kelmasligiga alohida ahamiyat bergenligini ko‘rsatadi.

Tarixiy manbaalarda O‘g’uzxonning uch marotaba uylanganligiga doir aniq ma’lumotlar keltirilgan. Shu o‘rinda, Jo‘ra Fozil bu tarixiy faktning sabab va izohini o‘zicha yoritib beradi. Ijodkor O‘g’uzxonning otasi uni takror-takror uylantirishiga sabab sifatida Rajoga bo‘lgan muhabbatni va shu bois boshqa ayollarga iltifot ko‘rsatmasligi deya ko‘rsatadi. Asarga mohirona kiritilgan birgina to‘qima obraz vositasida asar syujeti g‘oyat jonli chiziladi.

Bundan tashqari, Ijodkor kitobxonni voqealar kechayotgan davrga olib kirish maqsadida qahramonlar nutqini sodda, uslubiy bo‘yoqlardan biroz yiroq holda beradi. Chunki O‘g’uzxon milloddan avvalgi - san‘at, madaniyat, adabiyot unchalik rivojlanmagan bir davrda yashagan. Ko‘chmanchi va jangovar xalqlar tili badiiy bo‘yoqlar bilan nihoyatda bezatilsa, kitobxon davr va tilning nomutanosibligidan taajjublanishi shubhasiz. Bilamizki, kelin va kuyovlik masalalari yoshi ulug‘lar o‘rtasida gaplashiladi. Asarda esa Xoqon Tuman kelinlikla munosib ko‘rgan birodari Kunxonning qizi Saqitni huzuriga chaqirtiradi:

“ – Boshingga baxt qushi qo‘nib turibdi, qizim. Men seni kelinlikka munosib topdim. Katta o‘g’lim Boturning zavjasni bo‘lasan.” Bu kabi dialoglar o‘sha davr hayoti, turmush tarzini jonli ifodalash uchun asarga kiritilgan.

Asarga yana bir to‘qima obraz kiritilganki, busiz O‘g’uzxon shaxsiyati to‘laqonli ochilmaydi. Darvesh va O‘g’uzxon munozarasini “Farhod va Shirin”dagi Farhod va Xusrav munozarasini (“Dedi: Majnun vatandin qayda ogah” (“Farhod va Shirin”), “Darveshda vatan na qilsin” (Ayriliq ostonasi), “Saddi Iskandariy”dagi Iskandar va Arastu munozarasini yodga soladi. Darveshning O‘g’uzxonga, O‘g’uzxonning darveshga bergan savollari va tinglangan javoblar vositasida O‘g’uzxonning falsafiy mushohadalari, dunyoqarashi yanada teranroq ochib beriladi.

Xulosa qilib aytganda, Jo‘ra Fozil ushbu romanni yaratish ekan, tarixiy manbalar bilan tanishib, ularni o‘zaro solishtiradi. O‘g’uzxon obrazining jonli va ulug‘ xonga muvofiq qiyofasini yaratish uchun turli badiiy to‘qima obrazlar va voqealardan mohirona foydalanadi. Adibning tarixiy voqelikni badiiy haqiqatga aylantirishdagi mahorati tufayli asar bugungi kun kitobxonini davr muhitini, qahramonlar qiyofasi bilan yaqqol tanishtira oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Jo‘ra Fozil. Ayriliq ostonasi. Sharq nashriyot –matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent . 2006.
- 2.Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. Cho‘lpon nashriyoti. Toshkent. 1994.
3. O‘g’uznama. O‘zbekiston nashriyot-matbaa uyi. Toshkent. 2007.
4. Abulg‘ozzi Bahodirxon.Shajarayi turk. Cho‘lpon nashriyoti. Toshkent. 1992